

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSTIYA VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

GULCHEHRA G‘AFFAROVA

KREATIV FIKRLASH

Darslik

«SARBON LLS»
TOSHKENT – 2024

UO‘K:
KBK:

G‘affarova G. G‘.

Kreativ fikrlash [matn] / G.G‘affarova. Darslik. – T.: “SARBON LLS”, 2024. – 218 b.

Mazkur darslikda kreativ tushunchasining mazmun-mohiyati, kreativ fikrlashning zamonaviy modellari, yoshlarda kreativ fikrlash mezonlari, yoshlarda ijtimoiy kreativlikni shakllantirish omillari, yoshlarda noodatiy fikrlashni shakllantirishning mantiqiy asoslari, munozara - kreativ fikrlashni shakllantiruvchi jarayon sifatida, tanqidiy fikrlash, yoshlar shaxsiy ijodkorligini rivojlantirishning samarali strategiyalari, kreativ shaxs tavsifi, yoshlarda liderlik xususiyatlarini shakllantirishning asosiy mezonlari, yoshlarda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining va innovatsiyalarning ahamiyati, muvaffaqiyatga erishishda kreativ fikrlashning ahamiyati, pedagogik kreativlik mohiyati hamda kreativ fikrlashning bugungi kundagi ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar bayon qilingan.

Darslik oliy o‘quv yurtlari talabalari va o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqot olib boruvchi izlanuvchilar hamda ijodga, kreativ tafakkurni rivojlantirishga qiziquvchi keng kitobxonlarning barchasiga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

N.A. Nazarov – Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori;

K.J. Tulenova – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Falsafa kafedrasi mudiri, falsafa fanlari doktori, professor

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11 noyabrdagi 429-sonli buyrug‘iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN

KIRISH

Jahon ta'lim tizimida yoshlarning tafakkur yuritish jarayonini to'g'ri yo'naltirish orqali ularda kreativ va nostandart tafakkur tarzini shakllantirish, ijodkorlik fazilatlarini qaror toptirish, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni real hayotiy vaziyatlarda tezkor qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirishga e'tibor kuchaymoqda. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development, OECD)ning maktab ta'limi sifatini baholashga qaratilgan tadqiqotlarida ta'limni hayotga yaqinlashtirish va integratsiya jarayonlarini kuchaytirish ustuvor maqsad sifatida belgilangan va unda kreativ (noodatiy, nostandart) fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash ilm-fan yangiliklari va kashfiyotlarni qo'lga kiritishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularda kreativ (noodatiy, nostandart) tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo ta'lim amaliyotida ta'lim mazmunini yoshlarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirish orqali ularda akmeshaxsni tarbiyalash bilan bog'liq an'ana kuchaymoqda va uning ilmiy-pedagogik asoslarini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'paymoqda. AQSH, Yaponiya, Germaniya, Finlyandiya, Singapur, Xitoy kabi mamlakatlarda maktab o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish, xususan, ularda nostandart va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini qaror toptirish, maktab ta'limi mazmunini hayot bilan integratsiyalash natijasida o'quvchilarning iqtidor xususiyatlarini ro'yobga chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga, xususan, ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlar sifatida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, akmeologik va evrestik ta'lim texnologiyalari asosida dars mashg'ulotlarining samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Albatta, kreativ fikrlash, biron bir ishga kreativ yondashish bugungi kunda jamiyat hayotining va ishlab chiqarish jarayonining barcha sohalarida eng ko'p e'tibor qaratilayotgan va o'rganilayotgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ta'lim tizimiga "inklyuziv ta'lim, zamonaviy reabilitatsiya va abilitatsiya usullarini keng joriy etish"¹ hamda "Yangi O'zbekistonni yuksak bilimli, intellektual salohiyatli insonlar yurtiga,

¹ Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va yangi O'zbekiston. – Toshkent: "O'zbekiston", 2024. – B.143.

ma'rifiy jamiyatga aylantirish"² g'oyasini ilgari suradi.

Darhaqiqat, bugungi kunda ta'lim sifatini xalqaro baholash dasturlari talablariga muvofiq oshirish, ta'lim mazmunini zamon talablariga moslashtirish, o'quvchilarni hayotga tayyorlash, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, nostandart va kreativ tafakkurga ega bo'lgan o'quvchi shaxsini tarbiyalash ta'lim tizimining zamon bilan hamnafas vazifalari sirasiga kiradi. Ta'kidlash lozimki, bu jarayon oila va ta'lim muassasi negizida shakllantiriladigan fundamental tarbiya asosiga qurilib, ta'lim jarayoni bilan uyg'unlashgandagini o'zining samaradorligini ko'rsatadi. Bunda ta'lim va tarbiyaning obyekti hamda subyekti o'rtasida shunday bog'lanish tashkil etilishi kerakki, bu jarayon pedagogik va psixologik omillarning kompleks yondashuv metodlariga asoslanmog'i lozim. Bu o'rinda, albatta, ta'lim beruvchidan o'z faoliyatiga nisbatan kreativ yondashuv, nostandart vaziyatlarda maqsadga muvofiqlashgan individual va guruhli manfaatlar uyg'unligining kesishgan nuqtasida ta'limni singdirish bilan bog'liq omilkor vositalardan foydalanish talab etiladi.

Albatta, bu jarayon har bir ta'lim beruvchidan ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon etishni, ta'lim jarayonini tashkil etishda qoliplangan yondashuvlardan voz kechishni, dars mashg'ulotiga nisbatan ijodiy jarayon sifatida qarashni, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi barcha usul, vosita va texnologiyalardan foydalanishni taqozo qiladi. Zero, har bir dars mashg'uloti individual hodisa bo'lib, turli xil ishlanmalar, ommalash-tirilgan metodikalar ayni dars mashg'ulotining samaradorligini ta'minlab bera olmasligi mumkin. Chunki, dars mashg'ulotining samaradorligini ta'minlovchi omillar nihoyatda ko'p va ular qatorida har bir o'qituvchining dars mashg'ulotini olib borishda o'quvchilar bilan tashkil qilingan ruhiy munosabatni ham keltirish lozim. Tanlangan metodika va uni qo'llashda mazkur ruhiy munosabat ham katta rol o'ynaydi.

Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir, bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan XXI asr ko'nikmalariga ega kadrlarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi yoshlar kelajakda hozir, hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. Talaba-yoshlarda kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi.

² O'sha joyda. –B.137.

Kreativ fikrlash zamonaviy bilim berishga qaratilgan ta'lim mobaynida ko'r-ko'rona yodlash o'rniga tadqiqot va ixtironi qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlar orqali rivojlantirilishi mumkin, talabalar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak.

Ta'kidlash kerakki, insonni insoniyligini ifodalovchi eng muhim ijtimoiy fazilatlaridan biri hisoblangan "kreativ qobiliyat" va "kreativ tafakkur" tushunchalari insonni yuksak ijodiy imkon sohibi ekanligiga dalolat qilishi bilan birga, ayni paytda shaxs mustaqilligini ifodalovchi eng muhim belgilardan biridir.

Kreativ tafakkur tushunchasi tarixiy manbalarda turli xil ma'no va qarashlarni anglatib kelgan. Bu tushuncha ikki xil xususiyatga ega bo'lgan so'zlar birikmasidan iborat bo'lib, o'zida sifatiylik va miqdoriylikni mujassam etadi. "Kreativlik" uning sifatini bildirsa, "tafakkur" esa fundamental xususiyatini aks ettiradi. Shuningdek, kreativlik keng ma'noda kishining voqea va hodisalarning o'ziga xos mohiyatini ijodiy anglashga asoslangan faoliyat hisoblanadi, kreativ tafakkur esa insonning ijodiy tafakkurini nazarda tutadi. Ko'rinib turibdiki, yuqoridagi ta'riflarda ham ikki tushuncha bir-biridan sifat va miqdor jihatidan farqlanadi. Qadimda yunon faylasuflari bu masala yuzasidan turli xil qarashlarni o'rta tashlaganlar.

Ko'plab talabalarining ta'lim olishga nisbatan qiziqishi pasaygan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti. Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish-istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi choratadbirlar belgilansada, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashtirilib qo'yilishi talabalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimol bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir.

O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'la olar. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil - kreativlik sanaladi.

Mazkur masala bugungi kun ta'lim tizimining dolzarb muammo-

laridan biri ekanligi va bu bo'yicha yangi darslik va o'quv adabiyotlarini yaratishga mamlakatimiz rahbari ham alohida urg'u berib, quyidagi fikrlarni bildirilib o'tganlar: "Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro dasturlarga moslashtirish lozim. Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazzmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur"³.

Ta'lim beruvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o'z navbatida, o'qituvchilarga ta'lim jarayonida o'quvchilarda ijodiy g'oyalar "inkubatsiya" bo'lishi uchun muayyan vaqt talab etishini anglashga yordam beradi.

Mazkur darslikda "Kreativ tafakkur" fanini o'qitishning dolzarbligi asoslangan, mazkur fanning tuzilmasi keltirilgan hamda fan bo'yicha o'qitishning mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, fan bo'yicha o'qitish texnologiyalari loyihalashtirilgan:

1) ma'ruza mashg'ulotlarini oib borishning kirish - ma'ruza, mavzu asosida ma'ruza, muammoli ma'ruza, munozara ma'ruza, informatsion ma'ruza, ko'rgazmali ma'ruza ko'rinishlari qo'llanilishi;

2) amaliy mashg'ulotlarni olib borishning topshiriqlarni individual tarzda yoki guruhda bajarilishi, loyiha texnologiyasi, nazariy bilimlar asosida bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni chuqurlashtirishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlarning bajarilishi yoritilgan.

"Kreativ fikrlash" fanining qonun-qoidalari, tushuncha va tamoyillarini o'rganishda alohida e'tibor berish zarur bo'lgan jihatlar: kreativ tushunchasining mazmun-mohiyati, kreativ fikrlashning zamonaviy modellari, yoshlarda kreativ fikrlash mezonlari, yoshlarda ijtimoiy kreativlikni shakllantirish omillari, yoshlarda noodatiy fikrlashni shakllantirishning mantiqiy asoslari, munozara - kreativ fikrlashni shakllantiruvchi jarayon sifatida, tanqidiy fikrlash, yoshlar shaxsiy ijodkorligini rivojlantirishning samarali strategiyalari, kreativ shaxs tavsifi, yoshlarda liderlik xususiyatlarini shakllantirishning asosiy mezonlari, yoshlarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining va innovatsiyalarning ahamiyati, muvaffaqiyatga erishishda kreativ fikrlashning ahamiyati, pedagogik kreativlik mohiyati hamda

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil 30 dekabr. № 276 (7778).